



ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>



**SOUTH INDIA OF ANCIENT INDIAN EPICS
THE INFLUENCE ON THE LITERATURE OF THE PEOPLE**

Ulfatxon Muhibova

**Doctor of Philological Sciences, Professor,
Tashkent State University of Oriental Studies**

Abstract: The article examines the impact of the samples of ancient Indian literature "Mahabharata" and "Ramayana" on the development of the written literary heritage of the peoples of South India, in particular, such as Telugu, Tamil, Kannada and Assam. The article examines which national literatures of the southern peoples were impacted by the "Mahabharata" in Sanskrit, reveals the period of reconstruction of the ancient Sanskrit "Mahabharata" in the national languages and their differences, the positive impact of the epic on the development of written literature of this national literature. Basically, It refers to the epic remade in Telugu, Kannada, Tamil languages.

Keywords: Andhra, Pandus, Mahabharat, Kannara, Shakuntala, Draupadi, Kurus, Nannaya Bhatt, Padma, Telugu.

**QADIMGI HINDISTON EPOSLARINING JANUBIY HINDISTON
XALQLARI ADABIYOTIGA TA'SIRI**

**Ulfatxon Muhibova, fil.f.d., professor
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**

Annotasiya: Maqola qadimgi hind adabiyoti namunalaridan bo‘lgan “Mahabharat” va “Ramayana” eposlarining janubiy Hindiston xalqlari, xususan, telugu, tamil, kannara va assam kabi milliy adabiyotlarning yozma adabiy merosi rivojiga ta'siri masalasiga bag‘ishlangan. Maqolada sanskrit tilidagi “Mahabharat” eposi qaysi asrlarda, janub xalqining qaysi milliy adabiyotiga ta'sir etib, shu millat tilida qayta yaratilgani va ularning qadimgi sanskrit tilidagi “Mahabharat”dan farqli tomonlari, shu milliy adabiyot yozma adabiyoti rivojiga bo‘lgan ijobiy ta'siri ochib beriladi. Bunda asosan, telugu, kannara, tamil tillarida qayta yaratilgan epos haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Andhra, pandular, Mahabharat, kannara, Shakuntala, Draupadi, kurular, Nannaya Bhatt, Padma, telugu.

Hindiston subkontinenti qadimiy davr adabiyotining eng yirik namunalaridan bo‘lgan, shimoliy Hindiston xalqlarining tarixi, madaniyati, dunyoqarashi va milliy qadriyatlari shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan, xalq og‘zaki ijodi mevasi bo‘lgan, og‘izdan og‘izga ko‘chib, keyin yozma adabiyot rivojiga asos bo‘lgan “Mahabharat” eposi mana qirq asrdan beri hind xalqining yodidan, kundalik xayotidan va butun ma'naviy olamidan chiqib ketmagan.

Sanskrit tilida yaratilgan “Mahabharat” eposining voqealari Hindistonning shimoliy xududlarida, xususan poytaxt shahar bo‘lgan Dehli atrofida bo‘lib o‘tgan. Biroq, bu asarning ta'siri janubiy Hindiston xalqlari adabiyotiga, uzoq va yaqin sharq mamlakatlari xalq og‘zaki ijodiga, yozma adabiyoti shakllanishiga katta ta'sir ko‘rsatgan.

Ma'lumki, Hindiston janubidagi shtatlar tili dravid tillar guruxiga kiradi. Shu tillardan biri telugu tili bo‘lib, bu tilda Andhra shtatining axolisi so‘zlashadi. Telugu tilidagi adabiyot namunalari shosana yozuvlari bo‘lib, ular IX-X asrlarga tegishli hisoblanadi. Undan keyingi davr adabiyoti namunalariga XIV-XV asrlarga tegishli Padma va Sarvadevalar she'riyatini kiritadilar. Bu davrda Andhra shtatida jaynlardini hukmron bo‘lib, shoirlar she'riyatida jayn g‘oyalari ta'sirini kuzatish mumkin.

XI asrlarda Andxradagi Chaluk'ya davlati rojasi Rajarajanarenra sanskrit tilida yaratilgan buyuk Bxaratalar avlodi haqidagi buyuk qissasni o'z ona tili telugu tilida tinglash istagi paydo bo'lganini aytadi va vazirlariga telugu tilida "Mahabharat" qissasini yaratishni buyuradi. Vazirlar bu vazifani bajarish uchun zx davrining o'ta iqtidorli, donishmand va she'riyatda tengi yo'q shoiri Nannaya Bxattni topib, unga shoh aytgan topshiriqni bajarishni yuklaydilar. Shu asnoda "Mahabharat" eposi telugu tilida Nannaya Bxatt tomonidan yaratiladi va unga "Andxra Mahabharat" deb nom beriladi.

Nima uchun roja Rajarajanarendra Kurular qissasini tinglash istagini bildirdi. Bunga sabab, 6 asrlarga kelib braxmanizm o'z mavqeini yana tiklay boshladi. Agar melodiylar 1 asrlarda braxmanizm shu davrda keng tarqalgan buddaviylik va jaynlarning mafkurasi bilan teng ravishda mavjud bo'lgan bo'lsa, 6 asrlarga kelib esa yangi diniy isloxotlar boshlanadi va bu borada jamiyatda braxmanizm dinini, uning kastalar tizimini, jamiyatda yo'q bo'lib ketayotgan braxmanizm an'nalarini yana qayta tiklash zarurati tug'iladi. Braxmanizmni tiklash esa ikki buyuk Mahabharat va Ramayana eposlari bilan chambarchas bog'liq edi.

Mahabharat na faqat pandavlar va kurular o'rtasidagi taxt uchun kurash syujeti bilan balki epos tarkibiga kiritilgan juda ko'p pand nasixatli ertak, hikoya, rivoyat va afsonalari bilan o'quvchini o'ziga tortadigan asar edi. Ayni mana shu didaktik hikoyalar, afsona va rivoyatlar shu davr jamiyati uchun ham juda zarur manba edi. Nannaya Bxatning fikricha, qonunchilar Mahabharatni "Qonunlar kitobi" deb atashgan, xayot saboqlarini yaxshi bilgan donishmandlar bu asarni "Inson axloqi kitobi" deb baholaganlar, shoirlar esa "Buyuk poema" deganlar, grammatiklar esa "She'riyat qoidalari" kitobi, tarixchilar "Buyuk tarix kitobi" deb qabul qilganlar. Shu ta'riflarning o'zi "Mahabharat" eposining qadimiy Hindistonning ensiklopedik asari deb baholanishiga asos bo'ladi. Bu esa turli soha vakillarining o'z sohasini targ'ib qilishda nima uchun Mahabharat eposidan foydalanganliklarini tushunish imkonini beradi.

"Andxra Mahabharat" asarini Nannaya Bxatt yagona bir maqsad yo'lida, ya'ni qadimgi varnalarga ajratilgan xayot tarzini va unda past tabaqa yuqori tabaqa

vakillariga bo‘ysinishi to‘g‘ri ekanligini targ‘ib qilish maqsadida yaratgan, ya‘ni braxmanizya dinining to‘g‘riligini targ‘ib qilmoqchi bo‘lgan.

Nannaya Bxatt sanskrit tilidagi “Mahabharat”ni telugu tiliga to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilmagan. Asosiy syujetni saqlagan holda o‘zi keraksiz deb hisoblagan qismlarini tushirib qoldirgan va bosh personajlar ta‘rifiga ko‘proq e‘tibor qaratgan. Uning poemasidagi personajlarning barchasi idealashtirib tasvirlangan. Ayniqsa, shohlarning barchasi aqlda, donishmandlikda, adolatda va kuch qudratda tengi yo‘q shoh sifatida tasvirlanadi. Xatoki, kurular o‘g‘loni Dur‘yodxanni ham “Kurularning eng yaxshisi” deb ta‘riflaydi. Ayol obrazlar, xususan. Pandular onasi Kunti, kurular'onasi Gandxari, pandular ayoli Draupadi, yoki Shauntala obrazlari juda yorqin tasvirlangan.

Telugu tilidagi Andhra Mahabharatning kannara tilidagi adabiyotga ham ta‘siri bo‘lgan. Shoir Padma (Pampa) Sarvadeva ham 12 asrda kannara tilida shu poemani “Pampa Bxaratamu” nomida yaratgan.

Kannara tilidagi adabiyotning vujudga kelishida ham Mahabharat va Ramayana eposlari asosiy o‘rinni egallagan. Chunki, manbalarda yozilishicha, kannara tilidagi adabiyotning vujudga kelishida X asrda yashagan djayn mafkurasi shoirlari bo‘lgan Pampa, Ponna i Rannalar ijodi yetakchi rol' o‘ynagan va ular, asosan, «Maxabxarat» va «Ramayana» eposlari syujetlaridan foydalanib ijod qilganlar. X asrdan keyin esa adabiyotni demokratlashtirish jarayonlari boshlanib, sanskrit adabiyotidan uzoqlasha boshlaganlar. Bunday demokratik adabiyot vakillari Nayasena va Basavalar bo‘lgan.

Assam adabiyotiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bu adabiyotning ham ilk shallanish jarayonida Maabharat eposi yotadi. 13 asrdagi uch yirik davlatlardan biri Kamatining shoxi Durlabxanarayan edi. U o‘z davrining shoir va olimlarini qo‘llab quvvatlar edi. Aynan uning saltanatida assam tili ilk bor adabiyo til sifatida qo‘llanila boshlandi. Saroy shoirlaridan bo‘lgan Xarivar Vipra o‘z shoxi Durlabxanarayanga atab madhiyalar yaratadi. U o‘zining “Babrubaxanar jangi” nomli asarida Durlabxanarayanni maqtaydi, uning ming yillar davomida hukmdor bo‘lishini tilaydi va buning uchun ot qurbonligini keltirish marosimini qilish

lozimligini asarida yozib o'tadi. Bu an'ana esa "Maxabharat" eposining 14-kitobida yozilgan bo'lib, shu bo'limdan olingan edi va eposda bu an'anani panduzodalardan Arjun bajargan edi. Ayni shu an'anaga murojaat qilib o'z saltanatini, o'z podshoxining umrini uzaytirish "Mahabharat" eposidagi voqea va shu syujet orqali assam tilida badiiy asar yaratilgan.

Tamil adabiyotiga ham oz bo'lsada sanskrit eposlarining ta'siri bo'lgan. X-XI asrlarda yashagan Kambanning «Ramayana» asari sanskrit tilidagi "Ramayana" asosida yaratilgan va bu asarni yaratishda muallif ko'proq tamil mifologiyasidan foydalangan va o'sha davr oddiy xalq xayotini ochib bergan.

Yuqorida tilga olingan milliy adabiyotlarda u yoki bu epos yeki to'oliq qayta yaratilgan, yoki asardan ma'lum bir syujetni olib yangi asar yaratilgan. Bundan tashqari janubning yana boshqa milliy tillariga ham har ikki emos ham yoki syujeti, yoki motivlari, yoki obrazlar tizimi orqali ta'sir ko'rsatgan. Bundan tashqari Hindiston bilan chegaradosh yoki geografik jihatdan Hindistonga yaqin bo'lgan uzoq sharq mamlakatlari adabiyotiga ham yaxshigina ta'sir ko'rsatgan, jumladan malay va indonez adabiyotiga, v'etnam xalqi adabiyotiga. Ramayana eposi qadimgi malay tilida to'liq ravishda qayta yaratilgan. Va u yerda hind xalqining buyuk shohlari yoki buyuk jangi emas malay xalqi yashagan Qadimiy Yava orollarida yashagan shohlar va shu oroldagi kichik davlatlar tarixi, insonlari, milliy qahramonlari kiritilgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, qadimgi Hindistonning ikki buyuk eposi "Mahabharat" va "Ramayana" eposlari janubning judako'p milliy adabiyotlariga o'z ta'sirisini o'tkazgan va bu tillarda eposlar yoki to'liq yaratilgan yoki syujet olib yangi asarlar yoki xudda shu asarga faqat milliy tus berib qayta yartganlar va bu asosda ularda yozma adabiyot shakllana boshlagan.